



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

DARYO HAVZALARI YAXLIT LANDSHAFT TUZILMA VA UNI TOPOGRAFIK XARITADAN CHEGARALASH

Otamirzayeva Mohigul Hakimjon qizi

doktorant

Namangan davlat universiteti

e-mail: otamirzaeva93-93@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada daryo havzasi landshaftlarining strukturasi, ularning yaxlit tuzilma ekanligi, xaritalash, jumladan, topografik xaritalarda havza landshaftlarini chegaralash, shuningdek, daryo suvayirg'ichlarini ham bosqichma-bosqich o'rganish yo'l-yo'riqlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: daryo havzasi, suv resurslari, tuproq eroziyasi, landshaft, chegaralash, daryo suvayirg'ichlari, tog'lar va cho'qqilar

RIVER BASINS ARE GENERAL LANDSCAPE STRUCTURE AND ITS DELINEATION FROM TOPOGRAPHIC MAP

Otamirzaeva Mohigul

Annotation. This article describes the structure of river basin landscapes, their integral structure, mapping, including delimitation of basin landscapes on topographic maps, as well as step-by-step study of river basins.

Keywords: river basin, water resources, soil erosion, landscape, river basin delineation

Endilikda yerdan barqaror foydalanish faqatgina alohida iqtisodiy hududlar uchungina emas, balki gidrofunksiyaning umumiy xususiyatini hisobga olgan holda yaxlit havza ichida madaniy landshaftni rejalashtirish o'zini oqlamoqda. Bir gidrografik havza ichida atrof-muhitni boshqarish ko'plab omillarni hisobga oladi. Bir tomondan mavjud suv resurslari: yog'in, yuza suvlari, yerosti suvlari, qaytarma suvlar, boshqa tomondan iqtisodiyotning turli sektorlari: shahar suv ta'minoti, irrigatsiya, sanoat, gidroenergetika ishlab chiqarish, rekreatsiya, baliqchilik kabilarning suvga ehtiyojini baholash muhim hisoblanadi. Havza geotizimiga antropogen bosimni baholashda aholi zichligi va infratuzilma, turli shakldagi sanoat va qishloq xo'jaligi indikatorlari tekshiriladi [1, 3-b.].

Turli mamalakatlarining daryo havzalarining xususiyatlari bir xil emas. Bu xususiyatlar abiotik o'lchamlar (yerdan foydalanish/yer usti tuzilishi, tuproq tuzilishi, tog' jinslarigacha bo'lgan chuqurlik, daryoning chuqurligi, daryoning umumiy uzunligi, topografik murakkablik, havzaning shakli, nishabligi, o'rtacha balandiligi) bilan birgalikda biotik indikatorlardan iborat. Qolaversa, ijtimoiy bosim va tiklanish

potensialni muayyan ma'muriy chegara ichida yer maydoni uchun hisobga olinadi. Daryo havzalarini klassifikatsiya qilish ularning ekologik xususiyatlari, yerdan foydalanish shakllari kabi xususiyatlarini umumlashtirish yoki guruhlash imkonini beradi, natijada ularni bir-biri bilan solishtirish taqqoslash va sog'lomlashtirish mumkin. Klassifikatsiya qilish havzadagi bir qator tabiiy va antropogen tafovutlarga asoslanadi. Tabiiy xususiyatlar iqlim, tuproq, chirindi qatlami, havza o'lchami, va suv ekotizimidan iborat bo'ladi. Antropogen xususiyatlar esa yerdan foydalanish va yerdan foydalanish turlari (shahar, qishloq xo'jaligi, o'rmon), gidrologik buzilish darajasi, suv tortish kabilardir. Iqlim, gidrologiya va geomorfologiya landshaftni shakllantiruvchi tabiiy tuzilmalardir. Tabiiy tuzilmalarning bu uch elementlari havza va uning biotasining tuzilishi va tarkibini aniqlashga o'zaro ta'sir qiladi. Ushbu kuchlarning xilma-xil kombinatsiyasi natijasida tuli xil havzalar shakllanadi. Qolaversa, daryo havzalari davomiy o'zgarishda va rivojlanishdadir. Ayrimlari tabiiy bo'lsa, qolganlari esa antropogen kuchlar ta'siridir. Daryo havzalarini o'rganish havza ichidagi bu o'zgarishlar va yerdan foydalanish tarixi haqidagi ma'lumotlaridan tashkil topadi. Shu sababdan havzalar atrof-muhit resurslarini boshqarishda tez-tez o'rganiladi va ifloslantiruvchi manbalar hamda boshqa muammoni keltirib chiqaruvchilar havza ichida aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish mintaqalaridagi daryo havzalari atrof-muhitni boshqarish hamda birinchi navbatda yerdan foydalanish tizimini optimallashtirish orqali hududning ekologik muvozanatini saqlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.


Gidrologik sistemalar ekologik birlik bo'lishi bilan, yer yuzasining bo'linishi uchun tabiiy asos sifatida qaraladi. Shuning uchun landshaftlarning antropogen transformatsiyalashuviga daryo havzasi miqyosida yondashuv eng muhim tasniflash deb qaralishi maqsadga muvofiq. Bunga asosiy sabab qilib quyidagilarni keltirdik:

- daryo havzalari suv, energiya va boshqa materiallarni tashiydi;
- geomorfik jarayonlarga aloqadorligi hamda alohida havzalarni xarakterlovchi relyef shakllariga ega ekanligi;
- aholi punktlari uchun suv ta'minotiga miqdor jihatidan ahamiyatligi;
- qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish;
- sanoat va kommunal suv ta'minoti;
- sanoat va maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish va boshqalar;

Garchi har qanday daryo havzalarining xususiyatlari o'xshash bo'lsa-da, daryo havzalarini har bir qismi o'ziga xos. Daryo o'z oqimi bo'ylab turli qismlari orqali o'tadi. Bunda uning biror qismida muammo kuzatilsa, oqibati butun havza bo'ylab kuzatilishi mumkin. Daryo havzalari kompleks ekotizim bo'lib, unda yerdan

foydalanish, yer usti geologiyasi, iqlim, topografiya, vegetatsiya jamoasi kabi biologik komponentlar bilan bog‘langan[2, 125-b.].

Daryo havzasining asosiy vazifasi – atmosferadan suv yig‘ishdir. Atmosferadan olingan namlik, tuproqqa singib ketadi. Infiltratsiya tezligiga bir qancha omillar, jumladan, tuproq turi, topografiyasi, iqlimi va o‘simlik qoplamiga ta’sir qiladi. Ular o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlar natijasida landshaft va daryo havzasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllanadi. Landshaftlarni tasniflashda daryo havzasi yondashuvini amalga oshirish ekologik, moliyaviy, ijtimoiy va ma’muriy manfaatlarga ega. Bu ekologik jihatdan sog‘lom va belgilangan daryo havzasi maqsadlariga mos keladigan mahalliy va mintaqaviy iqtisodiy hayotiylikni oshirishga yordam beradi.



Daryo suvayirg‘ichlari – daryolar suv to‘playdigan havzalarni bir-biridan ajralib turishini ta’minlaydi. Tog‘li hududlarda suvayirg‘ichlar tog‘ cho‘qqilarining eng baland nuqtalaridan o‘tadi va uni aniq o‘tkazish mumkin. Biroq tekislik hududlarida, buning aksicha, suvayirg‘ich chizig‘ini o‘tkazish ancha murakkabdir. Daryo havzasi chegaralarini aniqlashda turli usullar qo‘llaniladi. An’anaviy usul – topografik xaritadan bosh daryo va uning irmoqlarini, tog‘ cho‘qqilari aniqlab qo‘lda chegaralash o‘tkazishdan iborat.



Bunda bir necha quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- 1) Suv havzasining quyilish joyini aniqlang. Ushbu ○ belgi bilan belgilash;
- 2) Daryo va boshqa yaqin atrofdagi suv oqimlari va oqim yoʻnalishini ajratib koʻrsatish;
- 3) Togʻlar va choʻqqilarni qidiring. Yuqori nuqtalarni X bilan belgilash;
- 4) Yuqori nuqtalardan yuza oqimi yoʻnalishini tasavvur qilish; Oqim yoʻnalishini koʻrsatish uchun oʻqlarni chizish;
- 5) Quyilish joyidan boshlanib, baland nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq tortish; Konturlar toʻgʻri burchak ostida kesishsin. Yopiq va uzluksiz chegara(daryo havzasi)ni hosil qilish [3] .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyrak Z., Lisetskii F. Basin-scale approach to integration of agro-and hydroecological monitoring for sustainable Environmental management: A case Study of Belgorod oblast, European Russia. –MDPI. 2022 -25 b.
2. Aybike Ayfer Karadag`. Use of watersheds boundareriesin the landscape planning. –Intech: 2013. -130 b.
3. Loraine Joubert. How to read topographic maps and delineate Watershed Boundaries. – Rhode Island